

KOGITIV STILNING LINGVISTIK VOQELANISHI

M. Saydaliyeva ¹

Annotatsiya:

Maqola "Kognitiv stilning lingvistik voqelanishi" mavzusiga bag'ishlangan. Unda o kognitiv stilning lingvistik jihatlari, uning nutqdagi aks etish usuli tahlil qiladi. Kognitiv stil insonning dunyoqarashini, tafakkur va muloqotdagi o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu maqolada kognitiv stilning lingvistik vositalar orqali qanday amalga oshirilishi, ularning lingvistik ifodalarga qanday ta'sir qilishi aniqlashga harakat qilinadi. Nutqdagi ifodalar va tilning o'ziga xos xususiyatlari orqali kognitiv stilning shakllanishi va uning odamlar o'rtasida farqlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kognitiv stilning individual farqlarni va psixologik aspektlarni qanday aks ettirishini, shuningdek, nutq va kommunikatsiya jarayonidagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv stil, analitik munosabat, holistik munosabat, verbal munosabat, tasavvur munosabati, reflektiv metod, impulsiv metod.

Kognitiv stil – bu insonning ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va unga munosabat bildirish uslubi. Kognitiv stilning dastlabki qarama-qarshiligi holistik va analitik munosabatdir². Holistik munosabat insonlarning tuyg'ular, emotsiyalar asosida nutqni nayon etish uslubidir³. Holistik uslubda ma'lumotlar umumlashtirilgan holda beriladi. Faktlar, dalillarning nutqiy voqelanishi deyarli uchramaydi. Muayyan davr haqida so'z yuritilganda ham hissiyotga tayangan holda nutq so'zlash usuli dominantlik qiladi. Bunda so'zlovchi e'tiborini kengroq va umumiy tasavvurlarni yetkazib berishga qaratadi. Hikoya qilingan voqealar fikr so'nggida bir butun yaxlit tarzda tushuniladi:

Otam mashinani juda yaxshi haydardi. Mashinada Bog'ishamoldan o'tib, qishloqqa kirib borar ekanmiz, yaqinlashganimiz sari entikib, daqiqalarni sanay boshlardik... Muncha kilometr qoldi, muncha burilish qoldi... Qishloq sokin, bir yoqdan qushlarning sayrashi eshitilsa, bir yoqdan mototsikl-u traktorlarning tirillagan ovozi kelardi. Kattatagobga kiraverishda chapga qayrilib, kattagina bochkaning yonidan o'tib, qishloqda qoramiz ko'rinishi bilan hamma ortimizdan yugurar, bog'chada ishlaydigan Oysha va Dono ammalarim ham chopqillab kelishardi. Hamma ammamlarnikida yig'ilardi. So'rida uzumlar uzilgan, qaymog'-u turli noz-ne'matlarga to'la dasturxon atrofida o'tirib, shirin suhbat qurardik. Qishloq men uchun mehrga, muhabbatga to'liq, quyosh taftiday issiq bir muhit edi. Otam kabi sodda va samimiy odamlarida mehr deganlari daryo edi nazarimda. Shuning uchun bo'lsa kerak, ota yurtimizga sevgimiz bo'lakcha bo'lgan⁴.

Analitik usulda nutq so'zlash jarayoniga to'xtalganda, voqealarning kichik qismlarga bo'lib bayon etilishi, umumiy tasavvur voqeallardan habardor bo'lish barobarida tinglovchi ongida hosil bo'lib borishi, kichik ma'lumotlarga ham batafsil to'xtalib o'tish kabilar ko'zga tashlanadi⁵. Subyektiv, emotsional tavsilotlardan ko'ra fakt va dalillarga asoslangan obyektiv voqealarni bayoni yetakchilik qiladi:

To'g'risini aytsam, yosh oila bo'lganimiz uchun ham oson, ham qiyin bo'ldi. Eng avvalo, kelajagimiz uchun ham, soha tanlashda ham Vatanimiz uchun muhim bo'lganini tanlash kerak edi. Tanlov juda katta rol o'ynaydi, chunki kelajakda bu yo'nalishda ilm-fan qilasiz yoki ishlaysiz. Keyin esa jamg'armaning talabiga ko'ra, dunyoning Top-300 reytingiga kiradigan universitetga hujjat topshirishingiz lozim. Nufuziga qarab, talablari har xil bo'lishi mumkin. IELTS muhim omil emas, kamida 5,5-6 ball olish yetarli. Yuqori reytingdagi universitetlar esa balandroq talab qo'yadi⁶.

Holat, vaziyat, voqea, shaxs, narsa-buyumni tasvirlash, ular haqida fikr bayon etishda verbal hamda tasavvur munosabatlari ham nayomon bo'ladi. bunda so'zlar yordamida tasvir chizgilari yaratiladi. Vizual (biz bolalar qult etib yutib qo'ydik, hammamiz tamshanib, kutib o'tiribmiz), auditorial (qishloq sokin, bir yoqdan qushlarning sayrashi eshitilsa...), kinestetik (bolaligim otamning sehrli ertaklari-yu turli hikoyalari og'ushida

¹ Saydaliyeva Mahliyo Ulug'bek qizi, Qo'qon davlat pedagogika instituti

² Lacko D, Prošek T, Čeněk J, Helisková M, Ugwitz P, Svoboda V, Počaji P, Vais M, Haliřová H, Juřik V, Šařinka Ć. Analytic and holistic cognitive style as a set of independent manifests: Evidence from a validation study of six measurement instruments. PLoS One. 2023 Jun 13;18(6):e0287057. doi: 10.1371/journal.pone.0287057. PMID: 37310969; PMCID: PMC10263325

³ Messick S. Personality consistencies in cognition and creativity. In Messick S, editor. Individuality in learning. San Francisco: Jossey-Bass; 1976: pp. 4–23. <https://oyina.uz/uz/article/3187>

⁴ Messick S. Personality consistencies in cognition and creativity. In Messick S, editor. Individuality in learning. San Francisco: Jossey-Bass; 1976: pp. 4–23.

⁵ <https://oyina.uz/uz/article/2964>

o'tgan), olfaktor (issiqqina taomning hidi dimog'imizga urildi) sezgilar yordamida olingan ma'lumotlar nutqda rellashuvi ham kognitiv uslubning bir qismi sanaladi. Tasavvurning verballashuvi verbal-tasavvur metodi deb nomlansa, tasavvurning ishtiroksiz fikrlar verballashuvi verbal metod sanaladi¹. Bunda tavsilotlar lo'nda, ortiqcha bo'yoqlarsiz ask ettiriladi. Nutqdan birida chet elda tahsil olayotgan yosh oila vakillari ularning bu muvaffaqiyatida ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi, stipendiya tanlovining o'rni va uni qo'lga kiritish haqida so'zlash jarayonida ortiqcha tasavvurlar, emotsiyalarsiz faqat verbal uslubda nutqni bayon etish aks ettirilgan. Bunday bayon etilayotgan fikrlar o'rtasidagi mantiqiy izchillik, xronologik tartib uzviylikda sodir bo'lgan².

Insonlarning ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishi, vaziyatda qanday ish tutushi ularning reklektiv yoki impulsiv metoddan biri asosida kognitiv stilni namoyon etganini ko'rsatib beradi³. Reflektiv usulga ko'ra masalaga chuqur mulohaza asosida yondashiladi. Ijtimoiy normalar deviatitsiyasi deyarli ko'zga tashlanmaydi:

Haliyam yaxshi eslayman, o'rtoqlarim bilan muzqaymoqqa chiqsak, "ota, pul bering" deb yugurib kelardim. Ish stolidagi berilib ishlab o'tirgan otam "kostyumimning o'ng cho'ntagidagi pastidagi cho'ntakdan olasan" derdi. Pulni har doim so'rab olganman. Bir kuni ishdan kelganida so'ramasdan cho'ntagini kovladim. O'sha payt kimdir o'tganini sezdim. O'girilsam hech kim yo'q. Xayriyat, ayniqsa otamdan cho'chidim. Lekin ko'rmadi. Shunday deb o'zimni ovutib, xursand bo'lib ko'chaga yugurdim, muzqaymoqni paqqos tushirdim. Kechki oltida dasturxon atrofida o'tiranimizda ham otam indamadi. Ha, demak, sezmadim. Ertalab nonushtadan keyin otamni ishga kuzatish payti hamma bilan xayrlashayotib menga navbat kelganda sekingina qulog'imga "Qizim, bundan keyin ruxsatimsiz cho'ntagimni kavlaman, so'rasangiz o'zim beraman" dedi. Bu gapni shunaqangi sekin aytganki... Aslida hech kim eshitmadi, lekin mening nazdimda butun dunyo eshitganday bo'ldi go'yo. O'sha payti yer yorilmadi, yerga kirmadim. Sholg'omday qizarib ketdim, shekilli. Lekin otamning tarbiyadagi bu usuli va mana shu voqea umrbod yodimda qolgan. Otam jazo bermasdan meni jazoladi. Agar meni urishganida yoki qo'rqitib qattiqroq dakki berganida shu ish balki yana qaytarilardi, balki men hammasini unutib yuborardim. Ammo otam unday qilmadi, hammaning oldida meni izza qilmasdan, bir umrga yetgulik saboq berdi.

Emotsional ta'sirchanlik ham kognitiv usulni aks ettira oladi. Misol uchun, otaning saboqlarini eshitgan qizning aytilgan so'zlar ta'sirida tarbiya olish jarayoni buni aks ettiradi. "Otamning himoyasi menga yanayam kuch berardi", "Otamning tarbiyadagi bu usuli va mana shu voqea umrbod yodimda qolgan" – kabi fikrlar orqali kognitiv uslub shakllanishida emotsional yondashuvni ko'rish mumkin.

Eshqobil Shukur bilan olib borilgan intervyuda⁴ esa kognitiv stil reflektivlik, abstraktlik, argumentlarga boylik asosiga qurilganini guvohi bo'lamiz. Yozuvchi intervyu davomida ko'plab falsafiy, estetik va axloqiy mavzularda chuqur mulohazalar yuritadi. Ular nafaqat voqealar yoki fenomenni aks ettirish, balki ularni tahlil qilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalash jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Misol uchun, "ko'rish" va "qarash" tushunchalari orasidagi farqlar aytibgan o'rinlarda, so'zlovchining reflektiv tabiati, sermulohazaligi, tushunchalar mohiyatiga chuqur kirib borishi oydinlashadi:

XX asrda kino dunyoni zabt eta boshlaganida G'arb faylasuflaridan biri "Kino bizni ko'rishga o'rgatdi, lekin qarashdan judo qildi", degan edi (holbuki, o'sha paytdagi filmlar hozirgidan ko'ra ancha tuzuk bo'lgan). Darhaqiqat, ko'rish va qarash boshqa-boshqa tushuncha. Bir kunda ming-minglab narsalarni ko'ramiz, lekin shundan bor-yo'g'i uch-to'rttasiga qaraymiz. Qarashda dunyoqarash, fikr, ichki munosabat, hatto tuyg'u ishtirok etadi, ko'rishda esa unday emas. Dunyoning mashhur kinokompaniyalari Gabriel Garsia Markesga "Yuz yil yolg'izlikda" romani asosida badiiy film ishlanishi uchun ruxsat ma'nosidagi bittagina "xo'p" so'zi uchun millionlab dollar va'da qilishganda adib, ehtimol, ayni ko'rish va qarash orasidagi tafovutni hisobga olib, "Yo'q!" degandir.

Olam manzarasini abstrakt usulga lisoniylashuvi ham mazkur nutqiy parchada sezilib turadi. Madaniyat, ma'naviyat, vatan, til va so'zning mazmun-mohiyati haqida bildirilgan o'rinlar fikrlarning yuqori darajada umumlashtirgan tasvirlarini ifoda etadi. Eshqobil Shukur bilan olib borilgan intervyuni kuzatish natijasida uning serqirra kognitiv stilga ega ekani ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Lacko D, Prošek T. and others. *Analytic and holistic cognitive style as a set of independent manifests: Evidence from a validation study of six measurement instruments.* doi: 10.1371/journal.pone.0287057

[2]. Messick S. *Personality consistencies in cognition and creativity.* In Messick S, editor. *Individuality in learning.* San Francisco: Jossey-Bass; 1976: pp. 4–23.

¹ Riding RJ, Cheema I. Cognitive Styles—an overview and integration. *Educ Psychol.* 1991. Jan;11(3–4):193–215.

² <https://oyina.uz/uz/article/2964> (Murojaat sanasi: 01.12.2024)

³ Riding RJ, Wigley S. The relationship between cognitive style and personality in further education students. *Pers Individ Differ.* 1997. Sep;23(3):379–89.

⁴ <https://oyina.uz/uz/article/1402> (Murojaat sanasi: 10.12.2024)

- [3]. Riding RJ, Cheema I. *Cognitive Styles—an overview and integration*. *Educ Psychol*. 1991. Jan; 11(3-4):193-215.
- [4]. <https://oyina.uz/uz/article/2964>
- [5]. <https://oyina.uz/uz/article/3187>
- [6]. <https://oyina.uz/uz/article/1402>
- [7]. <https://oyina.uz/uz/article/3187>